



№6/2026

ANDIJON DAVLAT PEDAGOGIKA INSTITUTI

**ADPI**  
**Ilmiy xabarnomasi**

## METODIK KOMPETENTLIKNI RIVOJLANTIRISH UCHUN DIFFERENSIAL VA INDIVIDUAL YONDASHUVLAR

**Negmatova Arofatxon Muxtarovna**

*Andijon davlat pedagogika instituti*

### **Annotatsiya.**

Mazkur maqolada ta'lim jarayonida metodik kompetentlikni rivojlantirish uchun differensial va individual yondashuvlarning nazariy va amaliy asoslari yoritilgan. Metodik kompetentlik o'qituvchining kasbiy mahoratini oshirishda muhim omil bo'lib, zamonaviy ta'lim tizimida o'quvchilarning ehtiyojlari va individual imkoniyatlariga moslashtirilgan o'qitish usullarini qo'llash orqali rivojlantiriladi. Maqolada differensial yondashuvning o'quvchilar bilim darajasiga mos metodlarni qo'llashda, individual yondashuvning esa har bir o'quvchining shaxsiy xususiyatlarini hisobga olishda ta'lim sifatini oshirishdagi o'рни tahlil qilingan. Shuningdek, milliy va xorijiy tajribalar asosida pedagogik texnologiyalarning samaradorligi ko'rsatib o'tilgan. Ushbu maqolada zamonaviy interaktiv usullar, raqamli platformalar va adaptiv ta'lim dasturlarini qo'llash bo'yicha samarali strategiyalar taklif etilgan. Tadqiqot natijalari differensial va individual yondashuvlarni qo'llash metodik kompetentlikni rivojlantirishda yuqori natijalarga erishishga yordam berishini tasdiqlaydi. Maqola pedagoglar va tadqiqotchilar uchun metodik kompetentlikni rivojlantirish bo'yicha innovatsion yondashuvlar va amaliy tavsiyalarni o'z ichiga olgan bo'lib, ta'lim jarayonini shaxsiylashtirishga oid ixtiqbolli yo'nalishlarni o'z ichiga oladi.

### **Kalit so'zlar:**

metodik kompetentlik, differensial yondashuv, individual yondashuv, ta'lim jarayoni, pedagogik texnologiyalar, innovatsion usullar, shaxsiylashtirilgan ta'lim, ta'lim sifati, raqamli ta'lim platformalari, adaptiv ta'lim dasturlari.

### **Аннотация.**

В данной статье описаны теоретические и практические основы дифференцированного и индивидуального подходов к развитию методической компетентности в образовательном процессе. Методическая компетентность является важным фактором повышения профессионального мастерства учителя и развивается в современной системе образования за счет использования методов обучения, адаптированных к потребностям и индивидуальным возможностям учащихся. В статье анализируется роль дифференцированного подхода в использовании методов, соответствующих уровню знаний обучающихся, и роль индивидуального подхода в повышении качества образования при учете личностных особенностей каждого обучающегося. Также была показана эффективность педагогических технологий на основе отечественного и зарубежного опыта. В этой статье предлагаются эффективные стратегии использования современных интерактивных методов, цифровых платформ и программ адаптивного обучения. Результаты исследования подтверждают, что использование дифференцированного и индивидуального подходов помогает достичь высоких результатов в развитии методической компетентности. В статье содержатся инновационные подходы и практические рекомендации по развитию методической компетентности педагогов и научных работников, а также перспективные направления персонализации образовательного процесса.

### **Ключевые слова:**

методическая компетентность, дифференцированный подход, индивидуальный подход, образовательный процесс, педагогические технологии, инновационные методы, персонализированное образование, качество образования, цифровые образовательные платформы, адаптивные образовательные программы.

### **Abstract.**

This article describes the theoretical and practical foundations of differential and individual approaches to the development of methodical competence in the educational process. Methodological competence is an important factor in improving the professional skills of a teacher, and it is developed in the modern education system by using teaching methods adapted to the needs and individual capabilities of students. The article analyzes the role of the differential approach in using methods appropriate to the students' knowledge level, and the role of the individual approach in improving the quality of education in taking into account the personal characteristics of each student. Also, the effectiveness of pedagogical technologies was shown based on national and foreign experiences. This article offers effective strategies for using modern interactive methods, digital platforms, and adaptive learning programs. The results of the research confirm that the use of differential and individual approaches helps to achieve high results in the development of methodical competence. The article contains innovative approaches and practical recommendations for the development of methodological competence for pedagogues and researchers, as well as promising directions for the personalization of the educational process.

### **Keywords:**

methodological competence, differential approach, individual approach, educational process, pedagogical technologies, innovative methods, personalized education, quality of education, digital educational platforms, adaptive educational programs.

**Kirish.** Ta'lim tizimining sifatini oshirish va pedagoglarning kasbiy mahoratini rivojlantirish masalalari bugungi kunda dolzarb vazifalardan biriga aylangan. Shaxsiy va

professional maqsadlarga erishish uchun zarur bo'lgan metodik kompetentlik nafaqat o'qituvchilarning bilim va ko'nikmalarini chuqurlashtirishga, balki ularning pedagogik faoliyatini samarali tashkil etishga xizmat qiladi. Shu sababli, metodik kompetentlikni rivojlantirish zamonaviy ta'limning ustuvor yo'nalishlaridan biri hisoblanadi. Differensial va individual yondashuvlar ta'lim jarayonida pedagogik faoliyatni shaxsiylashtirishga, o'quvchilarning individual xususiyatlari va ehtiyojlariga mos ravishda ta'lim mazmunini loyihalashga imkon yaratadi. Differensial yondashuv o'quvchilarning bilim darajasi, o'quv sur'ati va qiziqishlarini inobatga olgan holda guruh va shaxsiy ishlashni optimallashtirsa, individual yondashuv esa har bir o'quvchining o'ziga xos psixologik xususiyatlarini hisobga olib, ta'limning samaradorligini oshiradi. Ushbu yondashuvlar ta'lim sifatini oshirish, o'quvchilarning o'quv faoliyatiga nisbatan motivatsiyasini kuchaytirish va shaxsiy yutuqlarni qo'llab-quvvatlashda muhim ahamiyat kasb etadi.

**Asosiy qism.** Maqolaning asosiy maqsadi metodik kompetentlikni rivojlantirishda differensial va individual yondashuvlarning nazariy va amaliy jihatlarini o'rganishdir. Shu bilan birga, ushbu yondashuvlarning ta'lim jarayonidagi ahamiyati, samaradorlikka erishish imkoniyatlari hamda pedagogik texnologiyalarni qo'llash bo'yicha tavsiyalar ishlab chiqishdir.

Metodik kompetentlik - bu o'qituvchilarning ta'lim jarayonini yuqori samaradorlik bilan rejalashtirish, tashkil etish va boshqarish uchun zarur bo'lgan bilim, ko'nikma va malakalarni o'z ichiga oluvchi muhim professional xususiyatdir. Bu tushuncha o'qituvchi shaxsining nafaqat nazariy bilimlarga, balki amaliy faoliyatga yo'naltirilganlik darajasini ham ifodalaydi.

**O'quv jarayonining mazmunini shakllantirish:** O'qituvchi o'quv dasturining har bir qismiga mos keluvchi metodlarni tanlaydi va ularni ijodiy qo'llaydi.

**Shaxsiy yondashuvni ta'minlash:** Har bir o'quvchining ehtiyoj va qobiliyatlariga qarab mos metodlarni joriy etadi.

**Innovatsion texnologiyalarni qo'llash:** Zamonaviy pedagogik texnologiyalarni integratsiya qilish orqali o'quvchilarning faolligini oshiradi.

**Metodik kompetentlikni rivojlantirishning zaruriy jihatlar:**

1. **Ilmiy asoslangan yondashuv:** ta'lim jarayonida innovatsion texnologiyalarni qo'llash uchun nazariy bilimlarni mustahkamlash.

2. **Amaliyotga yo'naltirilgan yondashuv:** har bir nazariy bilimni amaliyotda qo'llay olish mahorati.

3. **Moslashuvchanlik:** o'qituvchi turli sharoitlarda mos pedagogik strategiyalarni ishlab chiqish va tatbiq qilish qobiliyatiga ega bo'lishi.

4. **Kasbiy rivojlanish:** doimiy ravishda o'z malakasini oshirish va yangi metodlarni o'rganish [2].

Differensial yondashuv - bu o'quvchilarni guruhlariga ajratish va ularning ehtiyojlariga mos holda ta'lim jarayonini tashkil qilish usulidir. O'quvchilarning bilim darajasi bo'yicha ajratish, yuqori, o'rtacha va past darajadagi bilimga ega o'quvchilarga mos metodlar qo'llaniladi [1].

**Qiziqish va ehtiyojlarga moslashish:** Har bir o'quvchining o'quvga bo'lgan qiziqishini oshirishga yo'naltirilgan ta'lim strategiyalarini tanlash.

**Guruh va jamoaviy ishlash imkoniyatlari:** Guruh bo'lib ishlash orqali o'quvchilarning o'zaro hamkorlik va ijtimoiy ko'nikmalarini rivojlantirish. O'quvchilarning individual ehtiyojlarini qondirish. Har bir o'quvchining shaxsiy yutuqlarini hisobga olish. O'quvchilarda o'z-o'zini boshqarish va mustaqil o'qish malakalarini rivojlantirish. Individual yondashuv - bu har bir o'quvchining psixologik, intellektual va shaxsiy xususiyatlarini hisobga olib, ularga mos ta'lim strategiyalarini ishlab chiqish jarayonidir. Ushbu yondashuvning asosiy maqsadi - har bir o'quvchining o'ziga xos ehtiyojlari va qobiliyatlarini rivojlantirishdir.

Individual yondashuvning asosiy tamoyillari:

- **Shaxsiy xususiyatlarga moslashish:** Har bir o'quvchining bilim olish uslubi, qobiliyati va qiziqishlariga qarab ta'lim mazmunini shakllantirish.

- **Shaxsiylashtirilgan ta'lim dasturlari:** O'quvchilarning rivojlanish sur'atlariga mos dasturlarni ishlab chiqish.

Mustaqillikni rivojlantirish, o'quvchilarning o'z ustida ishlashga bo'lgan qiziqishini oshirish va mas'uliyat hissini shakllantirishga yordam beradi. O'quvchilarning shaxsiy rivojlanishiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi. Psixologik qulaylikni ta'minlaydi va stressni kamaytiradi. O'quv jarayonining motivatsiyasini oshiradi. Differensial va individual yondashuvlarning ahamiyati shundaki, ta'lim jarayonini shaxsiylashtirish va samaradorligini oshirish. O'quvchilarning o'quv faoliyatida faollik va ishtirokini kuchaytirish. Har bir o'quvchining ehtiyojlarini qondirish orqali ta'lim sifati va mazmunini boyitish.

Shunday qilib, differensial va individual yondashuvlar metodik kompetentlikni rivojlantirishda o'qituvchilarga zamonaviy ta'lim texnologiyalarini samarali joriy etish imkonini beradi. Bu yondashuvlar shaxsiylashtirilgan ta'limni tashkil etish orqali o'quvchilarning intellektual va ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirishda muhim o'rin tutadi. Differensial yondashuv pedagogik jarayonda o'quvchilarning individual imkoniyatlarini hisobga olish va ularga mos metodlarni qo'llashni talab qiladi. Ushbu yondashuvning asosiy maqsadi - o'quvchilarning bilim olish darajasiga mos ravishda ta'lim strategiyalarini ishlab chiqish va tatbiq etishdir. O'quvchilarning bilim darajasiga mos ta'lim strategiyalarini tanlash, bilim darajasi yuqori bo'lgan o'quvchilar bilan murakkab masalalar ustida ishlash, tanqidiy fikrlashni rivojlantirish. Bilim darajasi o'rtacha bo'lgan o'quvchilarga qo'shimcha izoh va amaliy mashqlar taklif etish. Bilim darajasi past bo'lgan o'quvchilar uchun qo'llab-quvvatlovchi materiallarni taqdim etish va o'quv sur'atlarini moslashtirish. Jamoaviy va individual ishlashni birlashtirish orqali o'quvchilarning o'zaro hamkorlikda o'rganish qobiliyatlarini rivojlantirish. Didaktik materiallarni differensiallashtirish (masalan, topshiriqlarni murakkablik darajasiga qarab taqsimlash).

Differensial yondashuv yordamida o'quvchilarning individual o'sish sur'atlarini kuzatish va ularning muvaffaqiyatlarini baholash mumkin [3]. Individual yondashuv o'quvchilarning psixologik, intellektual va shaxsiy xususiyatlarini hisobga olgan holda ularning ta'lim jarayonidagi ehtiyojlarini qondirishga qaratilgan. Bu yondashuv, ayniqsa, shaxsiy maqsadlar va

qobiliyatlarni rivojlantirishda samarali hisoblanadi. O'quvchilarning qiziqishlari, o'rganish uslublari va ehtiyojlarini inobatga olish orqali ularga mos ta'lim dasturlarini ishlab chiqish. Psixologik jihatdan qulay muhit yaratish va shaxsiy rivojlanishga yo'naltirilgan ta'limni tashkil etish.

Har bir o'quvchi uchun mos bo'lgan topshiriqlarni ishlab chiqish va individual ta'lim rejasini ishlab chiqish. O'quvchilarning kuchli tomonlarini rivojlantirishga yo'naltirilgan mashqlarni taklif qilish. Individual yondashuv yordamida o'quvchilarning o'zlashtirish darajasini sezilarli darajada oshirish va ta'limga bo'lgan motivatsiyasini kuchaytirish. O'zbekiston ta'lim tizimida differensial va individual yondashuvlarning qo'llanilishi ta'lim sifatini oshirish bo'yicha ijobiy natijalar ko'rsatmoqda. Ayrim maktablarda, jumladan, maxsus va ixtisoslashtirilgan maktablarda har bir o'quvchi uchun shaxsiy yondashuvni joriy etish orqali yuqori natijalar qo'lga kiritilmoqda. Har bir o'quvchining o'z sur'atida o'qish imkoniyatini yaratgan holda individual yondashuvni qo'llashga imkon beradi.

Xorijiy mamlakatlarda differensial va individual yondashuvlarning samaradorligini tasdiqlovchi ko'plab tadqiqotlar mavjud. Ta'lim jarayonida o'quvchilarning individual ehtiyojlarini qondirish uchun moslashtirilgan ta'lim rejalari joriy etilgan. AQShdagi Montessori metodikasida har bir o'quvchining qobiliyatlarini rivojlantirishga qaratilgan individual yondashuvlar keng qo'llaniladi. Janubiy Koreya tajribasiga ko'ra, innovatsion texnologiyalar va sun'iy intellekt asosida o'quvchilarning ehtiyojlariga moslashtirilgan ta'lim dasturlari amalga oshirilmoqda. Shunday qilib, differensial va individual yondashuvlarning ta'lim jarayonidagi o'rni va ahamiyati ortib bormoqda. Ushbu yondashuvlar metodik kompetentlikni rivojlantirish orqali nafaqat o'qituvchilarning kasbiy mahoratini oshiradi, balki o'quvchilarning ta'lim sifatini yuqori darajaga olib chiqadi.

Differensial va individual yondashuvlar ta'lim jarayonini shaxsiylashtirishning samarali vositalaridan biri bo'lib, ular metodik kompetentlikni rivojlantirishda muhim rol o'ynaydi. Ushbu yondashuvlarni amalga oshirishda turli pedagogik texnologiyalar va usullardan foydalanish kerak. Differensial va individual yondashuvlarni muvaffaqiyatli amalga oshirish uchun quyidagi zamonaviy pedagogik texnologiyalardan foydalanish tavsiya etiladi:

Zamonaviy interaktiv metodlar foydalangan holda kichik guruhda ishlash natijasida o'quvchilarning bilim darajasiga qarab kichik guruhlarga ajratish orqali ta'lim jarayonini samarali tashkil qilish mumkin [4]. Har bir o'quvchining fikr bildirishga bo'lgan qobiliyatini rivojlantirish, tanqidiy va ijodiy fikrlashni rag'batlantirish. Rolli o'yinlar o'quvchilarda shaxsiy yondashuvni qo'llab-quvvatlash, o'quvchilarning psixologik xususiyatlarini rivojlantirib beradi.

Raqamli platformalar "Learning Management System" (LMS) orqali har bir o'quvchining ehtiyojlariga mos dars materiallarini taqdim etadi. Multimedia materiallari audio va video foydalanib, o'quv jarayonini qiziqarli va samarali o'tkazish mumkin [5]. Adaptiv ta'lim dasturlari sun'iy intellekt asosida har bir o'quvchining ehtiyojlarini aniqlab, ta'lim mazmunini moslashtirish. Ta'lim jarayonini loyihalashda differensial va individual yondashuvlarni joriy qilish bosqichlari Differensial va individual yondashuvlarni tatbiq qilish quyidagi bosqichlarda amalga oshirilishini ko'rishimiz mumkin. O'quvchilarning bilim darajasi va ehtiyojlarini

inobatga olgan holda o'quv dasturlarini tayyorlash va har bir mavzu uchun o'quvchilarning ehtiyojlariga mos vazifalarni tanlash. Rivojlantiruvchi topshiriqlarni ishlab chiqish va ulardan foydalanish mumkin. Har bir o'quvchi uchun individual rivojlanish kartalarini yaratish. Bilimlar va ko'nikmalarni baholash uchun differensiallashtirilgan testlar va vazifalar qo'llash kerak. Monitoring natijalariga asoslangan holda ta'lim jarayoniga o'zgartirishlar kiritish mumkin. Har bir o'quvchining qiziqish va qobiliyatlarini rag'batlantirish uchun mos rag'batlantiruvchi usullarni qo'llash.

Differensial va individual yondashuvlarni muvaffaqiyatli amalga oshirish uchun ilg'or amaliyot modellarini ishlab chiqish va tatbiq etish zarurdir [6]. Har bir o'quvchining ehtiyojlariga mos topshiriqlarni o'z ichiga olgan ta'lim modellarini yaratish. Guruhli va individual yondashuvlarni qo'shgan holda interaktiv darslarni tashkil qilish. Mashg'ulotlarni o'quvchilarning bilim darajasi va psixologik holatiga moslashtirish. Tanqidiy va ijodiy fikrlashni rivojlantiruvchi usullarni qo'llash va texnologiyalarni integratsiya qilish orqali ta'lim mazmunini boyitish. Differensial va individual yondashuvlarni ta'lim jarayoniga joriy qilish uchun zamonaviy pedagogik texnologiyalarni qo'llash, o'quv rejalarini moslashtirish va o'quvchilar ehtiyojlariga mos ilg'or modellarni ishlab chiqish zarur. Bu yondashuvlar metodik kompetentlikni rivojlantirishda nafaqat ta'lim sifatini oshiradi, balki o'quvchilarning shaxsiy rivojlanishiga ham ijobiy ta'sir ko'rsatadi.

**Xulosa.** Ta'lim jarayonida differensial va individual yondashuvlar o'quvchilarning ehtiyojlari, qobiliyatlari va o'quv sur'atlariga mos ta'limni tashkil etish imkonini beradi. Har bir o'quvchining psixologik va intellektual imkoniyatlarini hisobga olib, shaxsiylashtirilgan ta'lim rejalarini ishlab chiqish orqali ta'lim jarayonining samaradorligi ta'minlanadi. Bilimlarni o'zlashtirishda farqlarni kamaytirish yordamida differensial yondashuv yordamida o'quvchilarning bilim darajasi va rivojlanish sur'atlariga mos ta'lim strategiyalari qo'llanib, o'quvchilar o'rtaidagi bilim farqlari bartaraf etiladi. Ijodiy va tanqidiy fikrlashni rivojlantirish yordamida ushbu yondashuvlar o'quvchilarning mustaqil va ijodiy fikrlash qobiliyatlarini rivojlantiradi. Psixologik qulaylik yaratish, individual yondashuv yordamida o'quvchilarda o'qishga nisbatan ijobiy munosabat shakllanadi va stress kamayadi. Shunday qilib, differensial va individual yondashuvlar ta'limning sifatini oshirish, o'quvchilarning rivojlanishiga xizmat qiluvchi muhim vositalardir. Metodik kompetentlikni rivojlantirish uchun samarali pedagogik strategiyalarni qo'llash zarur. Ushbu strategiyalar shaxsiylashtirilgan ta'lim dasturlarini ishlab chiqish, har bir o'quvchi uchun moslashtirilgan o'quv rejalarini va materiallar tayyorlash, interaktiv pedagogik usullarni qo'llash, rol o'yinlari, munozaralar, kichik guruhlarda ishlash va boshqa interaktiv usullar orqali o'quvchilarning bilim olish jarayonini faol tashkil qilish zarur. Bu strategiyalar nafaqat o'quvchilarning ta'lim sifatini yaxshilashga, balki o'qituvchilarning kasbiy rivojlanishiga ham xizmat qiladi. Differensial va individual yondashuvlarni ta'lim jarayoniga joriy qilish orqali metodik kompetentlikni rivojlantirish samaradorligi tasdiqlandi. Ushbu yondashuvlar o'quvchilarning ta'limga bo'lgan qiziqishini oshirishi, ularning ijodiy va tanqidiy fikrlashini rivojlantirishda muhim o'rin tutishi aniqlandi. O'quvchilarning bilim olish darajasidagi farqlarni minimallashtirish va ularda o'z-o'zini rivojlantirish qobiliyatlarini

shakllantirish imkoniyatlari namoyon bo'ldi. Raqamli ta'lim platformalari va sun'iy intellekt asosida differensial va individual yondashuvlarni qo'llashni yanada rivojlantirish. Shunday qilib, differensial va individual yondashuvlarning ta'lim jarayonida samarali qo'llanilishi metodik kompetentlikni rivojlantirish, ta'lim sifatini oshirish va kelajak avlodning shaxsiy va kasbiy rivojlanishiga yordam beradi. Bu yo'nalishdagi izlanishlar va tadqiqotlarni davom ettirish zamonaviy ta'lim jarayonini takomillashtirish uchun muhim ahamiyatga ega.

### **Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. Abdullayeva, G. (2020). Ta'lim jarayonida pedagogik texnologiyalarning samaradorligi. Toshkent: Fan nashriyoti.
2. Vygotsky, L. S. (1978). Mind in Society: The Development of Higher Psychological Processes. Cambridge, MA: Harvard University Press.
3. Dewey, J. (1938). Experience and Education. New York: Macmillan.
4. Kolb, D. A. (1984). Experiential Learning: Experience as the Source of Learning and Development. New Jersey: Prentice Hall.
5. Shirinov, A. (2021). Innovatsion ta'lim texnologiyalari: Nazariya va amaliyot. Toshkent: O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi.
6. Tomlinson, C. A. (2001). How to Differentiate Instruction in Mixed-Ability Classrooms. Alexandria, VA: ASCD.
7. UNESCO. (2021). Reimagining our futures together: A new social contract for education. Parij: UNESCO.
8. Santrock, J. W. (2008). Educational Psychology. Boston: McGraw-Hill.
9. Qosimov, S. (2019). O'zbek ta'lim tizimida innovatsion yondashuvlarning o'rni va ahamiyati. Pedagogika jurnali, 4(3), 45–50.
10. Bloom, B. S. (1984). Taxonomy of Educational Objectives. Boston: Allyn & Bacon.
11. Anderson, L. W., & Krathwohl, D. R. (2001). A Taxonomy for Learning, Teaching, and Assessing: A Revision of Bloom's Taxonomy of Educational Objectives. New York: Longman.
12. Xorazmiy, M. (2017). Differensial yondashuv asosida o'quv jarayonini tashkil qilish texnologiyalari. Innovatsion ta'lim jurnali, 5(2), 20–28.
13. OECD. (2019). Trends Shaping Education 2019. Paris: OECD Publishing.
14. Erikson, E. H. (1963). Childhood and Society. New York: W. W. Norton & Company.
15. Harrold, K. (2020). Personalized Learning Strategies in Modern Education. Educational Research Journal, 12(6), 143–157.

## MUNDARIJA

### *Negmatova Arofatxon Muxtarovna*

|                                                                                           |   |   |
|-------------------------------------------------------------------------------------------|---|---|
| METODIK KOMPETENTLIKNI RIVOJLANTIRISH UCHUN DIFFERENSIAL VA INDIVIDUAL YONDASHUVLAR ..... | 3 | 8 |
|-------------------------------------------------------------------------------------------|---|---|

### *Buranova Dilduzaxon Anvarovna*

|                                                                                                                                                                   |   |    |
|-------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------|---|----|
| QISHLOQ XO'JALIGIDA RAQAMLI TRANSFORMATSIYA JARAYONLARIDA BO'LAJAK AGRAR SOHA MUTAXASSISLARINING MA'LUMOTLARNI BOSHQARISH KOMPETENSIYALARINI RIVOJLANTIRISH ..... | 9 | 14 |
|-------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------|---|----|

### *Баранова Татьяна Анатольевна*

|                                                                                                                                           |    |    |
|-------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------|----|----|
| ИСПОЛЬЗОВАНИЕ ТЕХНОЛОГИЙ ИСКУССТВЕННОГО ИНТЕЛЛЕКТА В ПРОЦЕССЕ ФОРМИРОВАНИЯ КОНФЛИКТОЛОГИЧЕСКОЙ КОМПЕТЕНЦИИ У СТУДЕНТОВ УНИВЕРСИТЕТА ..... | 15 | 19 |
|-------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------|----|----|

### *Davlatov U.X., Parmanova P.T., Eshqo'ziyev D.D.*

|                                                                                                    |    |    |
|----------------------------------------------------------------------------------------------------|----|----|
| GLOBALASHUV SHAROITIDA OLIY TIBBIY TA'LIMNI MODERNIZATSIYA QILISHNING KONSEPTUAL TAMOIILLARI ..... | 20 | 24 |
|----------------------------------------------------------------------------------------------------|----|----|

### *Mo'minova Nilufar Abduvaxobovna*

|                                                                     |    |    |
|---------------------------------------------------------------------|----|----|
| ABDURAHMON SA'DIYNING "ALISHER NAVOIY QARASHLARI" TO'G'RISIDA ..... | 25 | 31 |
|---------------------------------------------------------------------|----|----|

### *Djalilova Dilnozaxon Obidjanovna*

|                                                                                                                                    |    |    |
|------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------|----|----|
| BO'LAJAK MUSIQA TA'LIMI O'QITUVCHILARINING GERMENEVTIK KOMPETENTLIGINI RIVOJLANTIRISH BOSQICHLARI VA UNING METODIK TA'MINOTI ..... | 32 | 37 |
|------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------|----|----|

### *Yo'Ichiboyeva Oysarakhon Sharifjon qizi*

|                                                                                    |    |    |
|------------------------------------------------------------------------------------|----|----|
| FIZIKA FANINI O'QITISHDA ADAPTIV O'QUV TIZIMLARINING PEDAGOGIK SAMARADORLIGI ..... | 38 | 40 |
|------------------------------------------------------------------------------------|----|----|

### *Zulunova Mokhlaroym Abdurashid qizi, Yo'Ichiboyeva Oysarakhon Sharifjon qizi*

|                                                                                           |    |    |
|-------------------------------------------------------------------------------------------|----|----|
| OLIY TA'LIMDA FIZIKA O'QITISHDA BLENDED LEARNING VA SUN'IY INTELLEKT INTEGRATSIYASI ..... | 41 | 46 |
|-------------------------------------------------------------------------------------------|----|----|

### *Душабаева Гуласал Муталибовна*

|                                                                                                        |    |    |
|--------------------------------------------------------------------------------------------------------|----|----|
| СОВРЕМЕННЫЕ МЕТОДЫ И ТЕХНОЛОГИИ ОБУЧЕНИЯ ИЗОБРАЗИТЕЛЬНОМУ ИСКУССТВУ В ОБЩЕОБРАЗОВАТЕЛЬНЫХ ШКОЛАХ ..... | 47 | 50 |
|--------------------------------------------------------------------------------------------------------|----|----|

### *Баранова Татьяна Анатольевна*

|                                                                                                                                       |    |    |
|---------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------|----|----|
| МЕТОД CASE-STUDY КАК ИНСТРУМЕНТ РАЗВИТИЯ КОНФЛИКТОЛОГИЧЕСКОЙ КУЛЬТУРЫ СТУДЕНТОВ В СИСТЕМЕ ВЫСШЕГО ПРОФЕССИОНАЛЬНОГО ОБРАЗОВАНИЯ ..... | 51 | 56 |
|---------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------|----|----|

### *Nasirdinova Gulshoda Donyorbek qizi*

|                                                                              |    |    |
|------------------------------------------------------------------------------|----|----|
| TALABALARNING YETAKCHILIK QOBILIYATLARINI RIVOJLANTIRISH TEXNOLOGIYASI ..... | 57 | 62 |
|------------------------------------------------------------------------------|----|----|

### *B.K.Mamadaliyev*

|                                                                                                                                                                 |    |    |
|-----------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------|----|----|
| BO'LAJAK BOSHLANG'ICH SINFI O'QITUVCHILARINING KREATIV QOBILIYATINI "KREATIV TEACHER" RAQAMLI TA'LIM MUHITI ORQALI RIVOJLANTIRISH: NAZARIYADAN AMALIYOTGA ..... | 63 | 68 |
|-----------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------|----|----|

